UO‘K 81

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KINOYANING IMPLITSIT-PRAGMATIK VOQELANISHI

Turdimatova Madinaxon Ravshanbek qizi,
Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)
19950809tm@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida kinoyaning nutqiy aktlar doirasida implitsit-pragmatik hodisa sifatida voqelanish xususiyatlari tadqiq etiladi. Kinoyaning yuzaga kelishida so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, propozitsional mazmun, nutq vaziyati, kontekst va tinglovchining yashirin ma’noni dekodlash jarayoni muhim omillar sifatida qaraladi. Tadqiqotda kinoyaning bevosita ifodalangan propozitsional mazmun bilan so‘zlovchi ko‘zlagan kommunikativ ma’no o‘rtasidagi ziddiyat asosida shakllanishi ko‘rsatib beriladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi kundalik nutq vaziyatlari hamda J. Austenning “Pride and Prejudice” asaridan olingan misollar asosida kinoyaning istehzo, tanqid, tanbeh, kesatiq, norozilik, yumor va maqtov kabi pragmatik ma’nolarni ifodalash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kichik tajriba materiallari asosida bir xil kommunikativ vaziyatga o‘zbek va ingliz tillarida kinoyaviy javob berishda so‘zlovchining individual yondashuvi, shaxsga yoki vaziyatga yo‘naltirilgan baholash hamda inkluziv va ekskluziv ma’no xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari kinoyaning universal kommunikativ mexanizmlarga ega bo‘lishiga qaramay, uning pragmatik voqelanishi milliy-madaniy va kommunikativ xususiyatlar bilan farqlanishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kinoya, ironiya, implitsit ma’no, pragmatika, nutqiy akt, illokutiv akt, propozitsiya, kommunikativ maqsad, kontekst, pragmatik funksiya, o‘zbek tili, ingliz tili.*

ИМПЛИЦИТНО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ ИРОНИИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье рассматриваются характеристики иронии как имплицитно-прагматического феномена в рамках теории речевых актов на материале узбекского и английского языков. Коммуникативное намерение говорящего, пропозициональное содержание, речевая ситуация, контекст и процесс декодирования скрытого смысла слушающим определяются как ключевые факторы возникновения иронии. Исследование показывает, что ирония возникает в результате конфликта между эксплицитно выраженным пропозициональным содержанием и коммуникативным смыслом, подразумеваемым говорящим. На основе повседневных речевых ситуаций в узбекском и английском языках, а также примеров из романа Джейн Остин «Гордость и предубеждение», в статье анализируется способность иронии передавать такие прагматические смыслы, как сарказм, критика, увещевание, насмешка, неудовлетворенность, юмор и похвала. Кроме того, на основе данных небольшого эксперимента выявляются индивидуальный подход говорящего, личностно- или ситуативно-ориентированная оценка, а также различия между инклюзивным и эксклюзивным значением при иронической реакции на идентичные коммуникативные ситуации в узбекском и английском языках. Результаты исследования свидетельствуют о том, что, несмотря на наличие универсальных коммуникативных механизмов, прагматическая реализация иронии отличается национально-культурными и коммуникативными особенностями.*

Ключевые слова: *ирония, имплицитный смысл, прагматика, речевой акт, иллокутивный акт, пропозиция, коммуникативная цель, контекст, прагматическая функция, узбекский язык, английский язык.*

THE IMPLICIT-PRAGMATIC REALIZATION OF IRONY IN UZBEK AND ENGLISH

Abstract. *This article examines the characteristics of irony as an implicit-pragmatic phenomenon within the framework of speech acts in Uzbek and English. The speaker's communicative intent, propositional content, speech situation, context, and the listener's process of decoding the hidden meaning are considered key factors in the emergence of irony. The study demonstrates that irony arises from the conflict between the explicitly expressed propositional content and the communicative meaning intended by*

the speaker. Based on everyday speech situations in Uzbek and English, as well as examples from Jane Austen's "Pride and Prejudice", the article analyzes the potential of irony to convey pragmatic meanings such as sarcasm, criticism, admonition, taunting, dissatisfaction, humor, and praise. Furthermore, drawing on data from a small-scale experiment, the study identifies the speaker's individual approach, person- or situation-oriented evaluation, and features of inclusive versus exclusive meaning when responding with irony to identical communicative situations in Uzbek and English. Research results indicate that, despite possessing universal communicative mechanisms, the pragmatic realization of irony is distinguished by national-cultural and communicative characteristics.

Keywords: *irony, implicit meaning, pragmatics, speech act, illocutionary act, proposition, communicative goal, context, pragmatic function, Uzbek language, English language.*

Kirish. Til insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida nafaqat axborot almashish, balki murakkab ma’no va munosabatlarni ifodalash imkonini ham beradi. Nutq jarayonida so‘zlovchi o‘z kommunikativ maqsadini har doim ham bevosita ifodalamaydi. Ayrim hollarda u o‘z fikri, munosabati yoki bahosini yashirin, bilvosita shaklda yetkazadi. Bunday kommunikativ mexanizmlar pragmalingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kinoya ana shunday murakkab ma’no hosil qiluvchi hodisalardan biridir. Kinoyada so‘zlovchi bir ma’noni ifodalab, boshqa ma’noni ko‘zlashi mumkin. Tinglovchi esa vaziyat va kontekst asosida yuzaki mazmun ortida yashiringan kommunikativ ma’noni anglaydi. Shu sababli kinoya nafaqat stilistik, balki pragmatik va kognitiv hodisa sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz tillarida kinoyaning implitsit-pragmatik voqelanish mexanizmlarini aniqlash hamda uning nutqiy aktlardagi funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Kinoya tilshunoslikda semantik, pragmatik, stilistik va kognitiv jihatlardan o‘rganilgan murakkab hodisalardan biridir. Uning asosiy xususiyati ifodalangan literal mazmun bilan so‘zlovchining ko‘zlagan kommunikativ ma’nosi o‘rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo‘ladi.

Kinoyaning nazariy tadqiqida D. C. Muecke, W. C. Booth va L. Hutcheonning (9:90, 6:120, 7:160) qarashlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu olimlar kinoyaning shakllanishida kontekst, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat hamda yashirin ma’noni anglash jarayonining muhimligini ta’kidlaydi. H. P. Grice (5:48) qarashlari esa kinoyani implikatura va bilvosita kommunikatsiya nuqtayi nazaridan tushuntirish imkonini beradi.

D. Sperber va D. Wilson (4:60, 9:65) tomonidan ilgari surilgan relevance theory hamda R. W. Gibbsning kognitiv yondashuvi kinoyaning tinglovchi tomonidan kontekst asosida interpretatsiya qilinishini izohlashga xizmat qiladi. J. L. Austin va J. R. Searlening nutqiy aktlar nazariyasi esa kinoyaviy gapning literal mazmuni bilan uning illokutiv maqsadi o‘rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi. J. Culpeper tadqiqotlarida kinoyaning tanqid, tanbeh, masxara va impoliteness bilan bog‘liq pragmatik funksiyalariga e’tibor qaratiladi.

O‘zbek tilshunosligida Sh. Safarov, M. Hakimov va M. G‘aziyevaning (10:112, 11:150) pragmalingvistik qarashlari kinoyaning kommunikativ ma’nosini o‘rganish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlarda kontekst, kommunikativ maqsad va propozitsional mazmunning o‘zaro munosabati alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kinoyaning umumiy nazariy asoslari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning o‘zbek va ingliz tillaridagi implitsit-pragmatik voqelanishini qiyosiy jihatdan tadqiq etish masalasi yanada chuqur o‘rganishni talab qiladi. Ayniqsa, kinoyaning kontekst, kommunikativ niyat, illokutiv maqsad va turli pragmatik funksiyalar bilan bog‘liqligini qiyosiy tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida kinoyaning implitsit-pragmatik xususiyatlarini aniqlash uchun qiyosiy, kontekstual va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida kundalik nutq namunalaridan hamda J. Austenning *Pride and Prejudice* asaridagi kinoyaviy ifodalardan foydalanildi.

Qiyosiy metod orqali ikki tildagi kinoyaning o‘xshash va farqli jihatlari, kontekstual tahlil orqali esa uning nutq vaziyati va kommunikativ maqsad bilan bog‘liqligi aniqlandi. Pragmatik tahlil asosida kinoyaning tanqid, tanbeh, istehzo, norozilik, yumor va maqtov kabi funksiyalari o‘rganildi. Shuningdek, kinoyaviy ifodalarning propozitsional mazmuni va illokutiv maqsadi o‘rtasidagi munosabat tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Sh. Safarov ta’kidlaganidek, lisoniy faoliyatning asosiy maqsadi ma’no yaratish va yaratilgan ma’noni anglashdan iborat. Demak, nutqning mazmunini faqat uning grammatik yoki

lug‘aviy tarkibi orqali aniqlash yetarli emas. Nutq vaziyati, kommunikativ ishtirokchilarning bilimlari, ularning o‘zaro munosabati va so‘zlovchining ko‘zlagan maqsadi ham mazmunni shakllantiruvchi muhim omillardir.

Kinoyaning implitsit ma’no hosil qilish mexanizmi

Kinoyaning muhim belgilaridan biri uning bilvosita ma’no ifodalash imkoniyatidir. So‘zlovchi ko‘pincha ijobiy shakldagi gap yordamida salbiy munosabatni yoki salbiy vaziyatni ijobiy shaklda ifodalaydi. Bunda tinglovchi verbal shakl bilan real vaziyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni anglash orqali yashirin ma’noga yetib boradi.

Masalan, imtihondan yiqilgan talabaning:

“Wow, I’m a genius!”

deya aytishi yuzaki mazmuniga ko‘ra o‘zini “daho” deb baholashni anglatadi. Biroq kommunikativ vaziyat bu ma’noni inkor etadi. Talabaning imtihondan yiqilgani ma’lum bo‘lganligi sababli *I’m a genius* jumlasi o‘zining lug‘aviy mazmunida emas, balki kinoyaviy ma’noda qabul qilinadi. Tinglovchi so‘zlovchining asl kommunikativ maqsadini “Men imtihondan muvaffaqiyatsiz o‘tdim” tarzida dekodlaydi.

Bu holatda uchta semantik-pragmatik qatlamni farqlash mumkin:

propozitsional mazmun → verbal ifoda → ko‘zlangan implitsit ma’no.

Shunday qilib, kinoyaning yuzaga kelishida propozitsional mazmun bilan kommunikativ maqsad o‘rtasidagi ziddiyat asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Kinoya va nutqiy akt

Kinoyaning pragmatik mohiyatini ochishda nutqiy aktlar nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Nutqiy akt tarkibida propozitsional mazmun so‘zlovchi tomonidan bildirilayotgan axborotni ifodalasa, illokutiv akt uning qanday kommunikativ maqsadda qo‘llanganini anglatadi.

M. Hakimov va M. G‘aziyeva propozitsional aktni nutq yoki gap tarkibidagi axborot mazmunini qamrab oluvchi struktur birlik sifatida izohlaydilar. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, kinoyada propozitsional mazmun va illokutiv maqsad o‘rtasida muayyan tafovut yuzaga keladi.

Masalan:

Kontekst: It is raining heavily.

So‘zlovchining verbal ifodasi:

“What lovely weather we’re having!”

Ko‘zlangan kommunikativ ma’no:

“The weather is terrible.”

Ushbu vaziyatda *What lovely weather we’re having!* jumlasining propozitsional mazmuni ob-havoni ijobiy baholashdan iborat. Biroq real vaziyat — kuchli yomg‘ir yog‘ayotganligi — bu baho bilan ziddiyat hosil qiladi. Tinglovchi aynan shu nomuvofiqlik asosida so‘zlovchining asl maqsadini anglaydi.

Demak, kinoyada illokutiv maqsad propozitsional mazmunning bevosita ustida emas, balki uning ostida yashirin tarzda ifodalanadi. Bu esa kinoyani implitsit kommunikatsiyaning muhim shakllaridan biriga aylantiradi.

Badiiy matnda kinoyaning implitsit ma’nosi

Kinoyaning implitsit xususiyati badiiy matnda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Jane Austinning “Pride and Prejudice” romanidagi Bennet xonim nutqi bunga misol bo‘la oladi:

“A single man of large fortune; four or five thousand a year. What a fine thing for our girls!”

Ushbu gapni kontekstdan ajratib olganda *a fine thing* birikmasi oddiy ijobiy bahoni ifodalagandek ko‘rinadi. Biroq asar kontekstida Bennet xonimning kommunikativ maqsadi qizlarining turmushga chiqishi va boy erkak bilan oila qurishi masalasiga ishora qilishdan iborat.

Bu yerda *a fine thing* bevosita predmetning sifatini emas, balki turmush qurish imkoniyatini anglatadigan yashirin bahoni ifodalaydi. Shunday qilib, kinoyaviy ma’no faqat leksik birlik orqali emas, balki butun kommunikativ vaziyat asosida yuzaga keladi.

Mazkur holat kinoyani anglashda kontekstning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tinglovchi yoki kitobxon qahramonning oldingi nutqi, vaziyat va ijtimoiy munosabatlar haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasa, kinoyaning implitsit ma’nosini to‘liq anglamasligi mumkin.

Kinoyaning pragmatik funksiyalari

Kinoya turli nutq vaziyatlarida turlicha kommunikativ maqsadlarni amalga oshiradi. Uning asosiy pragmatik funksiyalari sifatida istehzo, tanqid, tanbeh, kesatiq, norozilik, yumor, masxara va ayrim hollarda maqtovni ko‘rsatish mumkin.

Quyidagi misollar buni yaqqol ko‘rsatadi.

Istehzo va norozilik

Kontekst: Someone spills coffee on their shirt.

Verbal ifoda:

“Perfect start to the day!”

Ko‘zlangan ma’no:

“This is a bad start to the day.”

Bu yerda *perfect* leksemasi real vaziyatga zid ravishda qo‘llangan. So‘zlovchi aslida kunning yaxshi boshlanganini emas, balki noqulay vaziyat yuzaga kelganini bildirmoqda. Demak, ijobiy baho shakli salbiy kommunikativ ma’noni yashiradi.

Xuddi shu mexanizm o‘zbek tilida ham uchraydi:

“Kun zo‘r boshlanyapti!”

Bunda grammatik va leksik jihatdan ijobiy baho berilgan bo‘lsa-da, kontekst ushbu bahoning kinoyaviyligini belgilaydi.

Kesatiq va tanbeh

Kontekst: Someone is late for a meeting.

Verbal ifoda:

“Thanks for being on time.”

Ko‘zlangan ma’no:

“You are late.”

Ingliz tilida ushbu kinoyaviy ifoda bevosita haqorat qilmasdan, kechikkan shaxsga kesatiq qilish imkonini beradi.

O‘zbek tilida esa:

“Juda ham erta keldingiz!”

yoki

“Hozir-u nozir bo‘lganingiz uchun tashakkur!”

kabi ifodalar orqali xuddi shu vaziyatga munosabat bildirilishi mumkin.

Bunday misollarda verbal shakl ijobiy bo‘lsa-da, kommunikativ maqsad tanbeh va kesatiqni ifodalashga qaratilgan.

Kamsitish va salbiy baho

Kontekst: A person trips and falls.

Verbal ifoda:

“Smooth move!”

Ko‘zlangan ma’no:

“That was clumsy.”

Bu yerda *smooth move* iborasi aslida ijobiy bahoni bildiradi. Biroq yiqilish vaziyati bilan ziddiyat hosil qilgani sababli u kinoyaviy mazmunga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida:

“Biram ohista yuraman-da!”

kabi ifoda ham shunga yaqin pragmatik vazifani bajarishi mumkin.

Norozilik

Kontekst: A person gets stuck in traffic.

Verbal ifoda:

“Just what I needed!”

Ko‘zlangan ma’no:

“This is the last thing I needed.”

So‘zlovchi real vaziyatni “kerakli narsa” sifatida taqdim etadi, aslida esa tirbandlik uning rejasini qiyinlashtirgan. Shu sababli kinoya norozilik va salbiy bahoni bilvosita yetkazadi.

O‘zbek tilida:

“Mana senga nima kerak edi!”

yoki

“Shu menga kerakmi?”

kabi shakllar kinoyaviy mazmunni yuzaga chiqarishi mumkin.

Kinoyaning o‘zini baholash strategiyasi orqali voqelanishi

Kinoya faqat boshqa shaxsga qaratilgan bahoni emas, balki so‘zlovchining o‘z harakatiga munosabatini ham ifodalashi mumkin.

Kontekst: A person tries to fix something and breaks it further.

Verbal ifoda:

“Good job, me!”

Ko‘zlangan ma’no:

“I did a bad job.”

Bu holatda kinoya shaxsning o‘z-o‘ziga bergan bahosi sifatida namoyon bo‘ladi. Verbal ifoda ijobiy bo‘lsa-da, real natija salbiy bo‘lganligi sababli kinoyaviy mazmun hosil bo‘ladi.

O‘zbek tilida:

“Barakalla menga!”

yoki

“Yashavor-e!”

kabi ifodalar shu kabi vaziyatlarda o‘z-o‘zini kinoyaviy baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Bunday holat kinoyaning faqat interpersonal munosabatlarni emas, balki self-evaluation, ya’ni shaxsning o‘z faoliyatiga bergan bahosini ham ifodalash imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Maqtov shaklidagi kinoya

Kinoyaning qiziqarli xususiyatlaridan biri uning tashqi shaklda maqtovni, ichki mazmunda esa salbiy bahoni ifodalashidir.

Kontekst: A person burns dinner.

Verbal ifoda:

“Dinner is served!”

Ko‘zlangan ma’no:

“The dinner is ruined.”

Mazkur misolda so‘zlovchi ovqatning tayyorligini bildiruvchi odatiy ifodadan foydalanadi. Biroq ovqatning kuyib ketgani haqidagi vaziyat bu ifodani kinoyaviy talqinga olib keladi.

Xuddi shunday:

Kontekst: A person buys a new car that immediately breaks down.

Verbal ifoda:

“Great purchase!”

Ko‘zlangan ma’no:

“That was a terrible purchase.”

Bu misolda ham ijobiy baho shakli salbiy kommunikativ mazmunni yashiradi.

Ingliz va o‘zbek tillarida kinoyaning qiyosiy xususiyatlari

Keltirilgan misollar o‘zbek va ingliz tillarida kinoyaning umumiy kommunikativ mexanizmi mavjudligini ko‘rsatadi. Har ikki tilda ham kinoya ko‘pincha real vaziyatga zid baho berish orqali yuzaga keladi. Bunda ijobiy leksik birliklar salbiy vaziyatga nisbatan qo‘llanib, yashirin salbiy ma’no hosil qiladi.

Shu bilan birga, ikki tilda kinoyaning pragmatik yo‘nalishida ayrim tafovutlar kuzatiladi. Ingliz tilidagi misollarda so‘zlovchi ko‘pincha o‘zining vaziyatga bo‘lgan munosabatini birinchi shaxs nuqtayi nazaridan ifodalaydi:

“Just my luck!”

“I love waiting.”

“Oh, how fun!”

Bunday shakllarda so‘zlovchi o‘z holatini baholaydi va kommunikativ markazni o‘ziga qaratadi.

O‘zbek tilida esa kinoyaning ayrim ko‘rinishlarida adresatga yo‘naltirilganlik kuchliroq seziladi:

“Omadlisan-da!”

“Juda ham erta keldingiz!”

“Biram ohista yuraman-da!”

Bu kabi ifodalarda baho bevosita suhbatdoshga qaratilishi mumkin. Natijada kinoyaning shaxslararo munosabatni belgilash xususiyati kuchayadi.

Buni shartli ravishda **inklyuziv** va **eksklyuziv** yo‘nalish bilan izohlash mumkin. Inklyuziv yo‘nalishda so‘zlovchi o‘zini kommunikativ vaziyatga qo‘shadi, eksklyuziv yo‘nalishda esa salbiy vaziyat yoki bahoni suhbatdoshga yo‘naltiradi.

Kinoyaning kontekstga bog‘liqligi

Kinoyani to‘g‘ri anglashda kontekst asosiy omillardan biridir. Bir xil jumla turli vaziyatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki kinoyaviy ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

Masalan:

“What excellent service!”

jumlasi odatiy vaziyatda haqiqiy maqtov bo‘lishi mumkin. Biroq mijoz restoranda uzoq kutgan, xizmat sifatsiz bo‘lgan va xodimlar e’tiborsiz munosabatda bo‘lgan vaziyatda ushbu jumla kinoyaviy ma’no kasb etadi.

Demak, kinoyaning semantik mazmuni va pragmatik ma’nosi o‘rtasidagi tafovutni aynan kontekst bartaraf etadi. Tinglovchi real vaziyat, oldingi nutq, so‘zlovchining ohangi va kommunikativ munosabatini hisobga olgan holda yashirin ma’noni tiklaydi.

Kichik tajriba natijalari

Kinoyaning turli nutq vaziyatlarida voqelanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida ingliz tilidagi kundalik kommunikativ vaziyatlar asosida kichik tajriba tashkil etildi. Tajribada 10 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlarga turli vaziyatlar taqdim etilib, ularga mazkur vaziyatlarga kinoyaviy javob berish taklif qilindi.

Tajriba jarayonida ayrim vaziyatlarga respondentlar tomonidan bir emas, bir nechta variantdagi javoblar berilgani kuzatildi. Bu holat kinoyaning yagona qat’iy lingvistik shaklga ega emasligini ko‘rsatadi. Bir kommunikativ maqsad turli leksik, sintaktik va intonatsion vositalar yordamida ifodalanishi mumkin.

Masalan, yoqimsiz vaziyatga nisbatan respondentlar ijobiy baholovchi birliklardan foydalanish orqali kinoya hosil qilganlar. Bunday javoblar orasida *“Perfect!”*, *“Great!”*, *“Fantastic!”* kabi birliklarning salbiy vaziyatda qo‘llanishi kuzatiladi. O‘zbek tilidagi muqobillarda esa *“Zo‘r ekan!”*, *“Qoyil!”*, *“Barakalla!”*, *“Mana shu kerak edi!”* kabi birliklar orqali xuddi shu kommunikativ mexanizm amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillaridagi materiallarni qiyosiy tahlil qilish natijasida kinoya nutqiy aktlarda murakkab implitsit-pragmatik hodisa sifatida voqelanishi aniqlandi. Uning shakllanishida propozitsional mazmun, illokutiv maqsad, real nutq vaziyati va kontekst o‘rtasidagi munosabat hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kinoyada so‘zlovchi ko‘pincha vaziyatga zid verbal baholashdan foydalanadi. Ijobiy birliklar salbiy vaziyatga nisbatan qo‘llanib, salbiy kommunikativ ma’no; salbiy shakllar esa ayrim hollarda ijobiy bahoni yuzaga chiqarishi mumkin. Shu tariqa kinoya orqali istehzo, tanqid, tanbeh, kesatiq, norozilik, yumor, kamsitish va o‘z-o‘zini baholash kabi pragmatik ma’nolar ifodalanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz tillarida kinoyaning asosiy implitsit mexanizmi o‘xshash bo‘lsa-da, uning kommunikativ yo‘nalishi va verbal shakllanishida muayyan farqlar mavjud. Ingliz tilidagi misollarda so‘zlovchining o‘z holatini baholashi nisbatan faol namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida adresatga yo‘naltirilgan kesatiq, tanbeh va baholash shakllari ham faol qo‘llanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.*
2. *Booth, W. C. (1974). A Rhetoric of Irony. Chicago: University of Chicago Press.*
3. *Culpeper, J. (2011). Impoliteness: Using Language to Cause Offence. Cambridge: Cambridge University Press.*
4. *Gibbs, R. W. (1994). The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge: Cambridge University Press.*
5. *Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics 3: Speech Acts (pp. 41–58). New York: Academic Press.*
6. *Hutcheon, L. (1994). Irony’s Edge: The Theory and Politics of Irony. London: Routledge.*
7. *Muecke, D. C. (1969). The Compass of Irony. London: Methuen.*
8. *Searle, J. R. (1979). Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. Cambridge: Cambridge University Press.*
9. *Sperber, D., & Wilson, D. (1995). Relevance: Communication and Cognition (2nd ed.). Oxford: Blackwell.*
10. *Safarov, Sh. (2013). Pragmalingvistika. Tashkent.*
11. *Hakimov, M., & G‘aziyeva, M. (2020). Pragmalingvistika asoslari. Tashkent.*